

## Xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida interferensiyaning ijtimoiy-metodik hodisa sifatida roli

**Qayumova Munavvar Sanaqulovna**

Navoiy Davlat Pedagogika instituti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**Ostonova Marjona To‘lqin qizi**

Navoiy Davlat Pedagogika instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

Dunyo hamjamiyatida shunday hodisalar borki, ular insoniyat paydo bo‘lgandan buyon o‘z sir-asrorlarini to‘laligicha namoyon qilmagan. Til ham mana shunday voqeliklardan biri hisoblanib, o‘zining barcha murakkab jihatlari bilan hanuzgacha o‘rganilish doirasini yo‘qotmagan. Ushbu maqolada tilshunoslikda bir necha yuz yilliklar davomida o‘rganilib kelayotgan interferensiya hodisasining metodik va ijtimoiy muammo sifatida talqinini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Unda olimlarning interferensiya fenomenining paydo bo‘lish o‘rinlari haqida fikrlari va uni ijtimoiy hodisa sifatida ifoda etishga doir mulohazalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** interferensiya, tillar to‘qnashuvi, ko‘nikma, bilim, malaka, metodika.

### KIRISH

Darhaqiqat til inson aqli barcha tomonlarini tasavvur qilishga yetmaydigan, benihoya mustahkam bo‘lgan, o‘zining xilma-xilliklari bilan doimo diqqat markazida bo‘lib kelayotgan hodisadir. Jahon tilshunosligi o‘rganishlariga nazar tashlasak, til tushunchasiga turli davrlarda turli hududlarda uning ma‘lum bir jihatidan kelib chiqib aytilgan bir-biridan farq qiladigan ko‘pgina fikrlarga duch kelamiz. Tilning shunday jihatlari borki, ular tadqiq etilgani sari o‘zining boshqa murakkabliklarini ochib beraveradi. Shulardan biri tillarning o‘zaro bir-biriga ko‘p tomonlama ta’siri va aralashuvini ifodalab, interferensiya atamasi nomi bilan tilshunoslikka kiritilgan. Interferensiya bir necha o‘n yillardan buyon ko‘pgina tilshunos olimlarni qiziqtirgan til fenomenlaridan biri bo‘lib, lotinchadan tarjima qilinganda “inter”- o‘zaro, “ferens”- tashuvchi, ya’ni, o‘zaro tashuvchi degan ma’noni anglatadi. Bu atama asnosida ikki tilning bir-biriga ta’siri, bir tilning aralashuvi sababli ikkinchi tilda bo‘ladigan turli o‘zgarishlar tushuniladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Interferensiya hodisasini o‘rganish XX asr boshlarida tilshunoslik va undagi ikki tillilik masalalarini o‘rganish va yoritadigan turli asarlarning yaratilishi bilan belgilanadi. Bunda interferensiya hodisasini qiyosiy jihatdan o‘rgangan avstriyalik lingvist olim Gugo Shuhardtning qo‘shgan hissasi katta. Bugungi kungacha bo‘lgan ilmiy nashrlarda interferensiya hodisasiga turlicha urg‘u berib o‘tilganki, u xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida ona tilidagi o‘xshash va noo‘xshash elementlarning chalkashtirilishi va aralashirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan fenomendir. Tillarning o‘zaro ta‘siri to‘g‘risida birinchi bo‘lib tilshunos Boduen de Kurtene " Umumiy tilshunoslikka oid tanlangan asarlar" asarida o‘z fikr- mulohazalarini bildirgan bo‘lsa- da, “interferensiya” atamasi o‘sha davrda hali keng qo‘llanilmagan va olim bu atamani tillarning nafaqat boshqa tillar bilan o‘zaro ta‘siri natijasini, balki alohida til birliklarining o‘zaro yaqinlashishi va farqlarini ham ta’kidlab o‘tgan.

Mashhur tilshunos olim V.Vaynrayxning 1953- yilda “Til aloqalari” asari nashr etilgandan so‘ng “lingvistik interferensiya” tushunchasi keng ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa sifatida yuzaga keldi. Olimning fikricha, muqobil qo‘llanish natijasida. Bir xil toifadagi kishilar tomonidan ikki til o‘zaro aloqada bo‘ladi. U.Vaynrayx ikki tilli aloqa bir xil shaxslar tilni navbatma- navbat ishlatganda sodir bo‘ladi, degan xulosaga keldi. Yana bir tilshunos olim T.S. Baliashvili, shuningdek, til aralashuvi hodisasi faqat ikki til tizimining aloqa sharoitlari natijasida yuzaga keladi, deb hisoblaydi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida L.V. Shcherba, E.M.Vereshchagin, V.Yu.Rozentsveyg, A.A.Reformatskiy, V.A.Avrarin, Yu.D.Desheriev, V.A.Vinogradov, V.V.Alimov va boshqa ko‘plab olimlar ushbu kontsepsiya bo‘yicha ikki tillilik va til bilan aloqa qilish sharoitlari interferensiya hodisasi uchun zarur, degan xulosaga kelishgan.

## MUHOKAMA

Til o‘rganish jarayoni bevosita millatlarning madaniyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, avvalo o‘rganuvchi madaniyatlararo aloqalarni, o‘xshashliklarni va farqlarni bilishi kerak. M.A.Borodina “ Ikki har xil sistemadagi tillarning o‘zaro ta‘siri birinchi navbatda muloqot, o‘zaro tushunish ehtiyoji bilan bog‘liq.” – deb fikr yuritadi. Haqiqatdan ham tilga berilgan ta’riflarga e’tibor bersak, u ijtimoiy hodisa ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Til bilan ro‘y beradigan har qanday hodisa, xususan interferensiyaga ham avvalo ijtimoiy hodisa sifatida qaralishi lozim. J.Vandriyes

aytganidek, tillarning to‘qnashuvi tarixiy zaruriyat bo‘lib, ular o‘zaro bir-biriga ta’sir etmay qolmaydi.

Tillarning qo‘shilishi va ikki til o‘rtasidagi interferensiya hodisasi nafaqat o‘qituvchilarni balki ota-onalarni ham tashvishlantirmoqda. Chunki ona tilni o‘rganish mobaynida boshqa yangi xorijiy tilni, masalan, ingliz tilini ham o‘zlashtirish o‘quvchilada ikkala til xususiyatlarini o‘zaro ajratishda qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari atrofdagi jarayonlar, ya’ni, ota-onalarning tillarni ajratolmasligi sababli leksik, sintaktik, semantic, morfologik va fonologik kabi bir qancha interferensiya turlari yuzaga keladi. Interferensiya masalasi lingvistik va metodik hodisalar qatorida bo‘lgani kabi ijtimoiy-lingvistik tomonda ham o‘rganilishi kerak.

Tillardagi kommunikativ funksiya va ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati umumiy holatda barchasiga tegishli bo‘lishiga qaramasdan, ona tili o‘qitish boshqa tillarni o‘qitishdan tubdan farq qiladi chunki ba’zi vazifalarni bajarish doirasi har bir tilda turlicha bo‘ladi. Ya’ni, ona tilini o‘rganish jarayonida uning kommunikativ va ta’lim-tarbiyaviy jihatlari o‘quvchilar uchun birgalikda namoyon bo‘ladi. Chet tili o‘rganishdagi yetakchi vazifalar esa muloqot va amaliy qo‘llanilish hisoblanib, ta’lim va tarbiya funksiyalari yuqoridagilarga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Buning asosiy sababi ona tili o‘quvchilar tomonidan maktabgacha allaqachon amaliy egallangan bo‘ladi va endilikda ularga ona tilining ta’limiy tomoni, ya’ni, o‘qish va yozish malakalari, og‘zaki nutq malakalari aynan e’tibor bilan shakllantiriladi.

## **NATIJALAR**

Har bir bola avvalo ota-onasi bilan hissiy va aqliy yaqinlikda bo‘lishi lozimki, bu ularda yangi tilni nuqsonsiz o‘rganishga ko‘maklashuvchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘pchilik ota-onalar bolalar yangi xorijiy tilni o‘rganishi muhim deb hisoblashsada, bola eng ko‘p muloqot qiladigan muhitda, ya’ni, oilada bunga zamin yaratib berilmaydi. Ota-onalar bolalariga nisbatan munosabatlarini o‘z tillarida bemalol namoyon qilgani kabi bola yangi o‘rganayotgan tilda, ingliz tilida ham sozlashishlari kerak. Chunki o‘quvchi maktabda ingliz tilidan aytilishini o‘rgangan gap yoki so‘z birikmasini uyda ona tilida ko‘proq eshitsa, unda tillar o‘rtasidagi chalkashlik paydo bo‘ladi va bola ikkala til komponentlaridan birgalikda beixtiyor foydalanishga majbur bo‘ladi. Bu holat o‘quvchida ingliz tilini doimiy so‘zlashib kelayotgan ona tili bilan aralashtirishda birinchi sabab bo‘lib xizmat



qiladi. Deyarli barcha bolalar uchun ota-onalari va ularning xulq-atvorlari, gapirish madaniyatlari o'rganishning eng yaxshi modeli bo'lib xizmat qiladi, ya'ni, ular bajargan ishlar va aytgan gaplar bolalari uchun eng maqbuli bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham yangi til o'rganayotgan bolada ijtimoiy til muhitini oilada yaratish joiz. Aks holda bola ikki tilli guruhlar orasiga tushganda ular bilan muloqot o'rnatishda to'siqlarga duch keladi. Bu esa o'z-o'zidan ma'lumki, boshqa xalqlar bilan qurmoqchi bo'lingan do'stona munosabatlarga to'sqinlik qilmay qolmaydi. Ikkinchi til o'qitiladigan muhitda boladan nafaqat yangi tilni o'zlashtirish, balki undagi undagi turli xil malakalarni ham o'rganish talab qilinadi. Amma yangi o'rganayotgan tilida bilimlari yetishmasligi sababli yangi tilde talab etiladigan qoidalarga to'liq amal qilolmaydi. Bunda yordamlashuvchi omillar maktabdab oldin oilada va maktabgacha bo'lgan ta'limda namoyon bo'lishi kerakki, bolalar kelgusida o'rganmoqchi bo'lgan tilda turli xil hikoyalar va ertaklar eshitib ulg'ayishlari lozim. Shuningdek, har xil aql mashqlari, qiziqarli o'yinlar va rasm kitoblaridan hikoyalar tuzish orqali ham bolalarda yangi tilga nisbatan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni boshlash mumkin. Xorijiy til o'qitiladigan sinfdagi o'quvchida tildagi bilimlarning yetishmasligi sababli turli musobaqalarda ishtirok etishdan qochish, jamoaviy o'yinlarda qatnashmaslik va kamgaplik yuzaga keladi va oqibatda atrofdagi ijtimoiy munosabatlardan uzilib qoladi. Shuning uchun, yangi til o'rganishda faqatgina o'quvchining intellect emas, balki atrof-muhit ham katta rol o'ynaydi.

Metodologik nuqtayi nazardan qaraladigan bo'lsa, interferensiya xorijiy til o'rganish jarayonidagi salbiy hodisa sifatida ko'pchilik tadqiqotchi metodistlar muammosiga aylangan. Chet tilini o'qitish juda murakkab metodik jarayonlardan biri hisoblanib, ona tilini o'qitish jarayonidan tubdan farq qiladi. Birinchidan, o'quvchi ongida har qanday fikr avval o'z ona tilida shakllanadi va keyinroq leksik, fonetik va Grammatik qoidalarni hisobga olgan holda chet tilida ifodalanadi. Natijada chet tili o'rganishda ona tilining umumiy qoidalariga nazar tashlanadi va chet tili mezonlari bilan taqqoslanadi. Ikkinchidan, ona tilini o'qitish har doim tabiiy muhitda amalga oshsa, chet tilini o'zlashtirish uchun haftada ikki yoki uch marotaba o'qituvchi tomonidan dars jarayonida turli usullar yordamida sun'iy muhit yaratiladi. Shu sababli xorijiy til muallimi metodika fanining barcha muhim jihatlarini har tomonlama o'zlashtirib o'quvchilarning til ko'nikmalari (ona tili yoki ingliz tili) va tajribalarini o'rganishi va ularni yanada mustahkamlashi lozim.

Xorijiy tilni, ingliz tilini, oʻrgatishda esa bu kabi bosqichlar hammasi boshidan boshlanadi, oʻquvchida muloqotning butunlay boshqa shakli yuzaga keladi. Bunda taʼlim berishga qaratilgan qoidalarning barchasi amaliy malaka va koʻnikmalarni egallashni tezlashtirish va osonlashtirishga yoʻnaltiriladi. Oʻqish chogʻidagi nutqni amaliy muloqotda qoʻllay olish, axborot qabul qilish va joʻnatish asosiy amaliy maqsadning roʻyobi hisoblanadi. Tillarning yana bir xususiyati shundaki, ona tili tajribasi xorijiy tilni egallash jarayonida oʻzining ijobiy va salbiy tomonlarini koʻrsatadi. Egallangan koʻnikmalarning yangi til muhitiga koʻchishi koʻpincha salbiy holatlar koʻzga tashlanadi va bu interferensiya hosilasi deb qaraladi.

Tilshunoslikda chet tilini egallash undagi koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish bilan ifodalanadi. J.Jalolov “Chet tili oʻqitish metodikasi” asarida *Koʻnikma* ongli holda bajariladigan faoliyatning avtomatlashgan tarkibiy qismidir. Ong ishtirokisiz avtomatlashgan faoliyat *malaka* deb taʼriflaydi. Koʻnikma va malakadan farqli ravishda *bilim* chet tilidagi Grammatik va leksik qoidalarni yod olish orqali oʻzlashtiriladi. Koʻnikma va malaka masalalari koʻpchilik metodistlar tomonidan oʻrganilgan boʻlib, shulardan professor Sergey Flippovich Shatilov bu sohada har tomonlama izlangan. Soʻzning maʼnosi, uning grammatik shakli va boshqa soʻzlar bilan birika olish qobiliyati faqatgina chet tili amaliy muhitda oʻrganilgandagina roʻyobga chiqadi. Har qanday abstract boʻlgan nazariy qoidalarni oʻrganish sezilarli natija bermaydi. Demak, bilim bu koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish jarayonidagi ishtirokchi sanaladi.

Bir til koʻnikmalarining ikkinchi tilga koʻchishi chet tili oʻqitishdagi dolzarb muammodir. Bu borada til tajribasi yangi oʻzlashtirilayotgan koʻnikma va malakalarning amalga oshirilishiga toʻsqinlik qilishi yoki bu jarayonni yanada yengillashtirishi mumkin. Salbiy taʼsir, interferensiya, ichki yaʼni chet tilining oʻzida yoki tillararo yaʼni ona tili va chet tilida yuz berishi mumkin. Interferensiya tilning asosini tashkil etuvchi grammatika, leksika va talaffuzda roʻy berib muloqot jarayoniga taʼsir koʻrsatadi va soʻzlovchilarning bir-birini tushuna olmasligiga sabab boʻlishi mumkin. Buning oqibatida egallangan til koʻnikmalarini amaliyotda qoʻllashda turli qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan, oʻzbek tilining interferent taʼsiri chet tili oʻqitishda, ayniqsa, til oʻrganuvchilar oʻrtasidagi turli u yoki bu masalaga doir muhokamalar olib borilganda yaqqol koʻzga tashlanadi va ular qoʻllaydigan til elementlari oʻquvchilarning til koʻnikmalarini qay darajada egallaganliklarini namoyon etadi.

## XULOSA

Demak, interferensiya hozirgi zamon til o‘qitish metodikasidagi dolzarb muammolardan hisoblanib, u bir tilning ikkinchi tilga o‘tkazgan har qanday ta’siri natijasi doirasida o‘rganiladi. Metodika fani psixologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli interferensiya psixologik hodisa sifatida ham qaralib ikki til aloqaga kirishganda mutanosiblikning yo‘qolishi va ona tilidan o‘zlashgan bilimlar va ko‘nikmalarning o‘rganilayotgan yangi tilga ongsiz ravishda ko‘chirilishini ifodalaydi.

Interferensiya hali to‘liq o‘rganilmagan va ancha murakkab muammolardan biridir. Bu hodisa bir qancha xorijiy olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib asarlarida o‘z aksini topgan. Tillararo aralashuv faqatgina metodik hodisa bo‘lmay balki ijtimoiy hodisaligi bir qancha misollar bilan ko‘rib chiqildi. Demak, lingvistik interferensiya chet tilini o‘rganayotganda oldin o‘rganilgan til me’yorlaridan foydalanish ekanligi aniq bo‘lganidek, bu hodisa tilning barcha darajalari va sathlarida ham namoyon bo‘lishi isbotlangan. Shu sababli chet tilini o‘rganayotganda ona tilining har qanday ta’siridan qochish va bunga yechim topishga harakat qilish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Sayana Movsum Baghirova. Article “The kinds of the linguistic Interference”. Theory and Practice in Language Studies p.p176-181, February 2021.
- 2.Suleimenov R.K. Article “Interference in teaching foreign language and ways of its overcoming”. Международный научно-исследовательский журнал.
- 3.Zulfadli A. Aziz, Bukhari Daud, Syafira Yunidar. Article “Second Language Interference towards First Language Japanese Learners”. Indonesian Journal of English Language Teaching and Applied Linguistics. p.p159-176
- 4.Topvoldiyeva Mohigul “Interferensiya – sotsiolingvistik hodisa sifatida”. Retrieved from <http://library.navoiy-uni.uz>
- 5.Jamol Jalolov “Foreign language teaching methodology”. Toshkent.2012.
- 6.Ruzmetova D.K. “The grammar interference of the teaching English language for students”. Central Asia Research Journal For Interdisciplinary Studies ( CARJIS).p.p.302-307